

**O'QUVCHI-YOSHLARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA  
UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH***Sultonova Madina Abdurashid qizi**Samarqand viloyati Toyloq tuman**MMTB 27-maktab psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarning kasb-hunar egallashlari, maktabda kasbga yo'naltirish ishlari, hamkorlik masalalari ko'rsatish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, qiziqish, layoqat, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy qiziqish, kasbiy layoqat, kasbga yo'naltirish

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari ta'lim-tarbiya bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanib bugungi kunda umumta'lim maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. O'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda, o'z hohishi bilan kasbiy moyilligini aniqlash orqali kelgusi hayoti, faoliyati va kelajakdagi yutuqlarini ta'minlab beradigan kasb tanlashini to'g'ri tashkil etish eng muhim vazifalardan biridir. O'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida kasbhunarga yo'naltirish umumta'lim fanlari va mehnat faoliyati bilan tanishtirish orqali, ularning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi hamda jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o'ta muhim bosqichi bo'lajak kasbni tanlash, ya'ni aniq bir kasbiy qarorga kelishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Mantiqan olganda, bu davr kasbiy ta'lim boshlagunga qadar o'z nihoyasiga yetgan bo'lishi kerak. Bugungi kunda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, targ'ib etish va kasbiy tashxis ishlarining sust olib borilishi oqibatida ko'pchilik yoshlar o'z kasbiy imkoniyatlari, qaysi kasb sohasiga ko'proq yaroqli ekanliklari haqida tasavvurlari juda kam. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir inson bo'lg'usi kasbni mustaqil o'zi tanlasagina unga mehr qo'yadi. Uning zahmati qanchalar og'ir bo'lsada, charchamaydi va hech qachon nolimaydi. Taniqli amerikalik psixolog Devid Mayersning so'zi bilan aytganimizda "Bizning ko'pchiligimiz uchun mehnat hayotning eng katta va faol mahsulidir. Yashash bu mehnatdir. Mehnat faoliyati ehtiyojlarning qondirilishiga yordam beradi. Mehnat faoliyati bizni ta'minlaydi. Mehnat faoliyati orqali biz boshqalar bilan kommunikativ aloqaga kirishamiz. Mehnat faoliyati bizni kim ekanimizni anglatadi". Mehnat jarayonida shaxsning mehnatga munosabatini ifodalovchi xarakter xususiyatlari, jumladan mehnatsevarligi yohud dangasaligi, mas'uliyatligi, shu bilan birga odamlarga munosabatini ifodalovchi samimiylik, bag'rikenglik yoki aksincha, xudbinlik,

shaxsiyatparastlik kabi xislatlari namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyati jarayonida inson o'zini chuqurroq anlaydi, o'z "Men" iga bo'lgan bahosini tushunib yetadi. Umumta'lim maktablarida har bir o'quvchining mustaqil kasb tanlashga ijobiy munosabatini, qiziqish hamda ehtiyojini shakllantirish birmuncha qiyin kechmoqda. Kasb-hunarga yo'naltirishning uzluksizligini ta'minlashda bitiruvchilarning maktab amaliyotchi psixologlari, kasb-hunarga yo'naltiruvchilar, ota-onalarning hamkorligida o'quvchilarning kasbiy qaror qabul qilishi, ongli ravishda kasb tanlashi, kasbiy moslashuv hamda o'z kelajak maqsadini amalga oshirish rejasini ishlab chiqish kabi bir qator muhim masalalar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamalakatimizda qaysi soha mutaxassislariga ehtiyoj va talab yuqoriligini nazarda tutish va shunga muvofiq ravishda maktab o'quvchilarini ularning layoqati, qiziqishi, intilishi, imkoniyati asosida kasbga yaroqliligini aniqlash, so'ngra kasb-hunarga yo'naltirish maqsadga muvofiq ekanligi ayon bo'lmoqda. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida yana bir muammolardan biri kattalarning ta'siri masalasidir. Ota-onalarning shunday toifalari ham uchraydiki, ular farzandlarining hohish-irodasi, qobiliyati, qiziqishini hisobga olmasdan, o'zlariga qulay, ko'p daromad topishi mumkin bo'lgan kasb-hunarni egallashga majbur qilmoqdalar. Natijada ota-onaning qistovi bilan kasb-hunar egallagan yoshlar ushbu kasb egallagach mutaxassislikka emas, shunchaki diplomga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunday mutaxassis na jamiyatga, na oilasiga naf keltira oladi. Kasb tanlashga ta'sir qiluvchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ta'lim-tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining mazmuni va metodikalari majmuasini mukammallashtirish, yangi innovatsion metodiklar jamlanmasini ishlab chiqish.
2. O'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish
3. Ota-onalar, hamkor tashkilotlar ishtirokida turli aksiyalar, tadbirlar va kasb egalari bilan uchrashuvlarni ko'paytirish.
4. Kasbga oid ko'rgazmalar, sayohatlarni yil davomida uyushtirish
5. O'quvchining kasb-hunar o'rganishi uchun maktabda turli to'garaklar faoliyatini jonlantirish.

Bugungi kunda ta'lim muassasalarida yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun sharoitlar yaratish hamda qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ularning har tomonlama yetuk malakali mutaxassis bo'lib yetishishlarini ta'minlash maqsad qilingan. Prezidentimizning "O'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ham e'lon qilindi. Shu asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda maktabda quyidagi tadbirkorlik ishlarini yo'lga qo'yish mumkin bo'ladi: - umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7- sinfdan boshlab kasb-hunar

egallash va o`zini o`zi band qilish orqali xizmatlar ko`rsatish (frilansing) yo`nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o`quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish - maktabda o`quvchilar qiziqqan soha bo'yicha tajribali mutaxassisini jalb qilgan holda o`quv xonalari tashkil etish, o`quvchilarga qiziqqan kasblari uchun poydevor bo`ladigan bilim va ko`nikmalar berish; - o`quvchining qiziqqan sohasini puxta o`rganishi uchun malakali mutaxassisidan qo`shimcha ta'lim olishiga ko`maklashish - tashkil etilgan o`quv xonalarida o`quvchilar qiziqishi asosida kasb o`rganish - o`quvchilar o`zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotib mablag' topishiga ko`maklashish Oquvchilar darsdan bo'sh vaqtlarida tashkil etilgan o`quv xonalarida ham hunar o`rganib, ham o`zi yaratgan mahsulotni sotib oilasiga moddiy tomondan ko`mak berishi ham mumkin bo'ladi. Bu borada maktabda issiqxonalar, ekin maydonchalari, qandolatchilik sexi, tikuvchilik sexi, robototexnika ustaxonasi, kompyuter ustaxonasi, poyabzal ta'mirlovchi kabi tadbirkorlik to'garaklarida darsdan bo'sh vaqtlarida ishtirok etishlari mumkin bo'ladi. Yuqoridagi ishlarni amalga oshirish natijasida o`quvchi-yoshlar maktab davridan kasb-hunar egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshiriladi, hech bo'lmaganda maktabdan bitta kasb egallab chiqishlari uchun zamin yaratiladi. Ushbu ishlarni hamkorlikda amalga oshirib o`quvchilarni kasb-hunar egallashlari va qiziqishlari asosida kasb tanlashlari uchun katta yordam bergan bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abramova G.S. Vozrastnaya psixologiya. Toshkent 2005.
2. L.Beknazarova, M.Maxmudova. Ijtimoiy-psixologik trening. Toshkent 2016.
3. E.G'.G'oziyev. Psixologiya muammolari. Toshkent 1999.
4. R.Y.Toshtemirov, E.G'.G'oziyev Psixodiagnostika va amaliy psixologiya.

Toshkent 2004.